

MAMLAKATIMIZ HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHHLARI

Saidov Rasul Boltabayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

i.f.n., dotsent e-mail: rasulbek_saidov@gmail.com

Jo'rabeleva Xumora Muzaffar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

e-mail: jurabekovaxumora@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisda mamlakatimiz hududlarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy yo'naliishlar ko'rib chiqilgan. Hududiy rivojlanishning investitsiyalarni jalb qilishdagi o'rni, muammolar va imkoniyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar, texnologiyalar va iqtisodiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari hududlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *investitsion jozibadorlik, hududiy rivojlanish, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy siyosat, innovatsion texnologiyalar.*

Mamlakatimiz iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va hududlarni rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati katta. Xususan, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish orqali yangi ish o'rinalarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyati mavjud. Shu sababli, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish davlatning muhim iqtisodiy siyosatlaridan biridir.

Hududlarning investitsion jozibadorligi ularning iqtisodiy salohiyatini ochib beruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Hududda qulay biznes muhiti, soliq imtiyozlari va rivojlangan infratuzilma mavjud bo'lsa, investorlarni jalb qilish osonlashadi. Masalan, mamlakatimizning erkin iqtisodiy zonalari (EIZ) xorijiy investorlarga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Investitsion jozibadorlik hududda iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, biznes muhiti, soliq va kredit siyosati, shuningdek, investorlarga yaratilgan shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi. Bu ko'rsatkichlar hududning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Jahon bankining "Doing Business" reytingi va Global Raqobatbardoshlik Indeksi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega mamlakatlar, odatda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muvaffaqiyat qozonadi. O'zbekiston ham bu yo'naliishda o'z hududlarining salohiyatini oshirishga intilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2018-2023 yillarda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar[3]

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2018	2019	2020	2021	2022	2023

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar-jami, mldr so'm	12423 1,3	19592 7,3	21019 5,1	23955 2,6	2662 40	3521 24
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyaning YaIMdagi ulushi,%da	29,3	37	34,9	32,4	29,6	33

O'zbekistonning "Toshkent" va "Jizzax" EIZlarida amalga oshirilayotgan loyihalar investitsion jozibadorlikning oshishida muvaffaqiyatli natijalar bergan. Xususan, "Navoi" EIZ orqali amalga oshirilgan texnologik loyihalar hudud iqtisodiyoti rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonda 2023-yilning dastlabki 9 oyi davomida hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish samaradorligini tahlillari shuni ko'rsatadiki 2023-yilning dastlabki 9 oyi mobaynida aksariyat hududlarda investitsiyaviy faoliyat o'sish dinamikasini qayd etilgan va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi ortgan. Asosiy kapitalga investitsiyalarning respublika bo'yicha o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 11,8 foizga teng bo'lgan. Hududlar miqyosida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent (25,9 foiz), Samarqand (21,2 foiz), Jizzax (20,8 foiz) viloyatlarida qayd etilgan. Jami investitsiyalarning ortishi asosan xususiy sektor mablag'larini jalb qilish hisobiga ta'minlangan. Ma'lumot uchun: birgina Samarqand viloyatida joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida korxona mablag'lari hisobidan investitsiyalar 1,6 marotaba, tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 2,4 marotaba ortgan [8]. Sirdaryo (10,0 foiz), Xorazm (5,4 foiz) va Qashqadaryo (0,4 foiz) viloyatlarida asosiy kapitalga investitsiyalarning pasayish dinamikasi qayd etildi.

Investitsiya iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda hududiy rivojlanishi ta'minlash va xalqaro investitsiyalarni jalb etish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz hududlari investitsion salohiyatga ega bo'lsa-da, uning to'liq foydalanilmayotgan qismi ham mavjud. Ushbu tezisda investitsion jozibadorlikni oshirishning asosiy yo'nalishlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha yechimlar ko'rib chiqiladi.

Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda infratuzilmaning rivojlanish darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Transport, energetika va aloqa infratuzilmasining yuqori darajada rivojlanganligi hududga investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratadi. Ushbu maqolada infratuzilmaning ushbu uch asosiy yo'nalishi va ularning ahamiyati tahlil qilinadi.

Transport infratuzilmasi hududlarning iqtisodiy faoliyatida muhim o'rinn tutadi. Samarali transport tarmog'i mahsulotlar va xizmatlarning hududiy va xalqaro bozorlar bilan

bog'lanishini ta'minlaydi, bu esa investitsion salohiyatni oshiradi. Mamlakatimizda transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda:

1. Temir yo'llari: O'zbekiston temir yo'llari modernizatsiya qilinib, yangi yo'nalişlar ochilmoqda. Masalan, "Afrosiyob" tezyurar poyezd liniyalari turizm va savdo-sotiqni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2. Avtomobil yo'llari: Xalqaro transport koridorlariga ulanishni ta'minlash uchun avtomobil yo'llarini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda. O'zbekistonning Markaziy Osiyo transport tarmog'idagi strategik o'rni xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi.

3. Aeroportlar va logistika markazlari: Hududlarda yangi logistika markazlarini barpo etish va aeroport infratuzilmasini modernizatsiya qilish xalqaro va ichki yuk tashishni jadallashtiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda investitsion muhit va uning jozibardorligini yanada oshirish milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishida muhim o'rinni egallaydi. Buning asosiy sabablari bo'lib quyidagilar:

- birinchidan, ishlab chiqarish quvvatlarining eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yangilash kerakligi;
- ikkinchidan, sanoat tarmog'i moddiy texnika bazasining pastligi, zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarining mavjudligi;
- uchinchidan, mamlakatimizning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda koplab qayta ishlovchi korxonalarini qurish imkoniyatining mavjudligi;
- to'rtinchidan, qishloq hududlariga yaqin joylarda kichik zamonaviy ixcham korxonalarini barpo etish zarurligi;
- beshinchidan, respublikamizda ko'plab tayyor mahsulot ishlab chiqarish zarurligi va boshqalar hisoblanadi.

Fikrimizcha, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy muammolardan biri bu qulay investitsiya muhitining yo'qligi, ya'ni xususiy mulk huquqlarini tartibga solish va himoya qilish sohasining takomillashtirish bo'lib hisoblanadi. Bunday holat iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytirishi mumkin.

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda jami 10 milliard dollardan ortiq, jumladan, 8 milliard 100 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan. Buning natijasida 318 ta yirik va 15 mingdan ziyod hududiy loyihalar amalga oshirilib, 273 mingdan ortiq ish o'rni tashkil etilgan. Yangi korxonalar jami 1 milliard dollardan ziyod eksport va 530 million dollarlik import o'rnini to'ldirish imkoniyatiga ega.

Shu bilan bir qatorda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yuqori texnologiyali va inson kapitaliga faol yo'naltirilmaganligini ham ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda 9 milliard 500 million dollardan ziyod to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni o'zlashtirish, 282 ta yirik va 9 mingdan ortiq hududiy loyihalar ishga tushirish mo'ljallangan. Eksport hajmini 14 milliard dollarga yetkazish hisob-kitob qilingan.

2021-2023-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturida Respublika xomashyo bazasini kengaytirish va uni qayta ishlashni chuqurlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va yuqori texnologiyalarni keng jalgilish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlash, shu asosda yuqori daromadli ish o'rinalarini yaratish hamda hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish belgilangan.[5]

Amalga oshirilgan ishlar natijasida mamlakatimizda so'nggi yillarda ko'plab hududiy rivojlanish strategiyasiga muvofiq bir qator yirik loyihalar amalga oshirildi. Misol tariqasida, 2023-yilda Xorazm viloyatida 1.2 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilingan. Toshkent viloyati misloda sanoat zonalari 25% kengayib, ularni ishlab chiqarish hajmi 30% gacha kengaytirildi.

XULOSA

Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, ularning iqtisodiy salohiyatini samarali ishlatishga olib keladi. Ushbu yo'nalishda davlat tomonidan ko'rilib yaroqchi choralar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun qulay sharoit yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro tajribani o'zlashtirish zarur. Shuningdek, hududiy innovatsion markazlarni rivojlantirish kelgusida investitsiyalarini jalb qilishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari.
2. "Hududlarni rivojlantirishning investitsion strategiyalari" – T. Xodjiev, Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
4. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining hisobotlari.
5. Shadiyeva G.M. Mamlakatimizda investitsion muhitning jozibadorligini oshirish yo'llari,. Innovatsiya va investitsiya, 2023. – 71 6.
6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari.
7. "Innovatsion iqtisodiyot: nazariya va amaliyot" – J. Mamatov, Toshkent, 2023.
8. R.X. Zayniddinov. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg'or horijiy tajribalardan foydalanish yo'llari// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy electron jurnali, 2020-yil, 5-son, 90-101 betlar.
9. Xalqaro iqtisodiy tahlil markazlari tomonidan tayyorlangan hisobotlar (World Bank, IMF).
10. "Hududiy iqtisodiy rivojlanish: nazariya va amaliyot" monografiyasi.